Sun'iy intellekt vositalarining ingliz tilini o'rganishdagi yana bir muhim jihati real vaqt rejimida tezkor qayta aloqa berish imkoniyatidir. An'anaviy dars jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchining yozma va og'zaki topshirig'ini bir vaqtning o'zida chuqur tahlil qilishi qiyin. Sun'iy intellekt vositalari esa grammatik, leksik va uslubiy xatolarni aniqlash, talaffuzni tahlil qilish, yozma matnga izoh berish va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu o'quvchiga o'z xatolarini tez aniqlash, tuzatish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan pedagogik jihatdan samarali foydalanishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalaridan iborat. Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'rganish jarayonida sun'iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlash va ta'lim jarayonida samarali qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt va chet tilini o'rgatish integratsiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda amaliy lingvistika, pedagogika, raqamli ta'lim hamda kompyuter yordamida til o'rgatish sohalarining istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylangan. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi natijasida o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy elektron lug'atlar va avtomatik tarjima vositalaridan boshlab, zamonaviy generativ AI tizimlari, chatbotlar, ovozni aniqlash texnologiyalari va adaptiv ta'lim platformalarigacha bo'lgan turli vositalar shakllangan.

L. Kohnke, B.L. Moorhouse va D. Zou o'z tadqiqotlarida ChatGPT kabi generativ sun'iy intellekt vositalarining til o'qitish va o'rganish jarayonidagi imkoniyatlarini tahlil qilgan. Olimlarning fikricha, sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar o'quvchilarga real vaqt rejimida ingliz tilida muloqot qilish, individual savollar berish, o'quv materiallari yaratish, grammatik tushuntirishlar olish va yozma matnlarni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning raqamli savodxonligi, axborotni tanqidiy baholash ko'nikmasi va AI bilan to'g'ri muloqot qilish kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

1 https://lex.uz/docs/-7158604

J.S. Barrot sun'iy intellektdan ikkinchi tilni o'rgatishda, xususan, yozma nutqni rivojlantirishda foydalanishning imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilgan. Tadqiqotchi ChatGPT o'quvchilarga grammatik xatolarni aniqlash, matn strukturasini takomillashtirish, yangi g'oyalarni shakllantirish va individual feedback olishda yordam berishini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, generativ AI tomonidan noto'g'ri yoki faktik asosga ega bo'lmagan ma'lumotlar yaratilishi hamda akademik halollik qoidalarining buzilishi kabi muammolar ham mavjudligi ko'rsatilgan.

S. Mahapatra tomonidan olib borilgan tadqiqotda ChatGPTning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalarning akademik yozish ko'nikmalariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt asosida berilgan formativ qayta aloqa talabalar yozma ishlarining mazmuni, grammatik aniqligi va strukturaviy izchilligini yaxshilashga xizmat qilgan. Mazkur natija sun'iy intellektdan tayyor matn yaratish vositasi sifatida emas, balki o'quvchining mustaqil yozma faoliyatini takomillashtiruvchi pedagogik yordamchi sifatida foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

J. Fathi, M. Rahimi va A. Derakhshan o'z ilmiy ishlarida sun'iy intellekt vositalari orqali tashkil etilgan muloqotning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarning gapirish ko'nikmasiga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalarida AI bilan muntazam muloqot qilish o'quvchilarning nutq ravonligi, grammatik aniqligi, lug'atdan foydalanish qobiliyati, talaffuzi va ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan tayyorligini oshirishga ijobiy ta'sir qilgani aniqlangan.

J. Du va B.K. Daniel tomonidan o'tkazilgan tizimli tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi chatbotlarning ingliz tilida gapirish amaliyotida qo'llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqotchilar AI-chatbotlarning o'quvchilarga cheklanmagan miqdorda nutqiy mashq qilish imkonini berishi, xato qilishdan qo'rqish darajasini kamaytirishi va ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o'rganishda alohida til ko'nikmalarini shakllantirish bilangina cheklanmaydi. U o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchining xatolarini diagnostika qilish, tezkor feedback berish, motivatsiyani oshirish va mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi kompleks pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli mazkur maqolada sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganishdagi imkoniyatlari o'zaro bog'liq pedagogik tizim sifatida tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga oid zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik ilmiy manbalarni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish asosida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-nazariy tahlil yordamida sun'iy intellekt, generativ sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim, chatbot, avtomatlashtirilgan baholash, tezkor qayta aloqa va sun'iy intellekt yordamida til o'rganish tushunchalarining mazmun-mohiyati o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy ingliz tili ta'limi bilan sun'iy intellekt qo'llab-quvvatlovchi ta'lim modeli o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Kontent-tahlil metodi asosida mavzuga doir xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar mazmuni o'rganilib, ularda keltirilgan ilmiy natijalar asosiy til kompetensiyalari bo'yicha guruhlashtirildi.

Tadqiqotda pedagogik modellashtirish metodidan foydalanish orqali sun'iy intellektni ingliz tili ta'limiga integratsiya qilishning diagnostika, individuallashtirish, interaktiv mashq, tezkor qayta aloqa, refleksiya va pedagogik nazorat bosqichlarini o'z ichiga oluvchi yaxlit pedagogik yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv sun'iy intellekt vositalarining imkoniyatlarini faqat texnik jihatdan emas, balki o'quvchi faoliyati, ta'lim maqsadi va o'qituvchining pedagogik boshqaruvi bilan uzviy bog'langan holda tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi bir necha asosiy pedagogik funksiyalari aniqlandi. Bular diagnostik, individuallashtiruvchi, kommunikativ, nazorat qiluvchi, maslahat beruvchi, generativ va refleksiv funksiyalardan iborat. Diagnostik funksiya o'quvchining mavjud bilim va ko'nikmalarini aniqlash imkonini bersa, individuallashtiruvchi funksiya uning natijalariga mos o'quv materiallari va topshiriqlar yaratishga xizmat qiladi. Kommunikativ funksiya o'quvchining ingliz tilida muntazam muloqot qilishini ta'minlaydi. Nazorat va maslahat beruvchi funksiyalar esa xatolarni aniqlash, ularni tushuntirish va to'g'ri variantlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Ingliz tilini o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi ingliz tilidagi nutqni tushunishi uchun so'zlarning talaffuzini aniqlashi, grammatik birliklarni farqlashi, nutq tezligiga moslashishi va eshitilgan ma'lumot mazmunini anglab yetishi lozim. Sun'iy intellekt asosidagi ovozli texnologiyalar o'quvchiga turli mavzu, nutq tezligi va murakkablik darajasidagi audio materiallarni taqdim etish imkonini beradi.

O‘quvchi bir xil matnni bir necha marotaba tinglash, uning avtomatik transkripsiyasini ko‘rish, notanish so‘zlarni aniqlash hamda tinglab tushunish bo‘yicha individual savollarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellektning tinglab tushunishga doir muhim afzalligi audio materiallarni o‘quvchining til darajasiga moslashtirish imkoniyatidir. Boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar uchun sekin va sodda dialoglardan, yuqori darajadagi o‘quvchilar uchun esa tabiiy tezlikdagi murakkab akademik yoki ijtimoiy mavzulardagi nutqlardan foydalanish mumkin. Bu ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining mavjud bilim darajasiga moslashtirishga yordam beradi.

Ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar katta pedagogik imkoniyatlarga ega. An’anaviy auditoriya sharoitida dars vaqti chegaralanganligi tufayli har bir o‘quvchi bilan alohida va uzoq vaqt davomida muloqot qilish imkoniyati har doim ham mavjud emas. AI-chatbotlar esa o‘quvchiga istalgan vaqtda ingliz tilida suhbatlashish, turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish va muloqot davomida o‘z xatolarini aniqlash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt vositalari yordamida aeroport, mehmonxona, do‘kon, restoran, ta’lim muassasasi, ish joyi yoki boshqa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish mumkin. O‘quvchi mazkur vaziyatlarda o‘zini tegishli rolga qo‘yib, ingliz tilida dialog olib boradi. Bu uning faqat grammatik va lug‘aviy bilimlarini emas, balki real kommunikativ vaziyatda tildan foydalana olish kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Fathi, Rahimi va Derakhshanning tadqiqotlari AI vositalari orqali tashkil etilgan muloqot gapirish ko‘nikmasini va ingliz tilida gapirishga bo‘lgan tayyorlikni rivojlantirishini ko‘rsatadi.

AI bilan gaplashish ayrim o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan psixologik to‘siqlarni kamaytirishda ham ahamiyatlidir. O‘quvchi sinfdoshlar yoki o‘qituvchi oldida xato qilishdan uyalishi mumkin, biroq sun’iy intellekt bilan mashq jarayonida bunday xavotir kamayadi. Natijada o‘quvchi ko‘proq gapirishga, yangi jumlalarni qo‘llashga va o‘z fikrlarini erkinroq ifodalashga harakat qiladi. Shunga qaramasdan, AI bilan muloqot real insonlararo muloqotni to‘liq almashtirmasligi lozim. Sun’iy intellekt dastlabki mashq va tayyorgarlik vositasi, real insonlararo muloqot esa kommunikativ kompetensiyani mustahkamlash bosqichi sifatida xizmat qilishi kerak.

Sun’iy intellekt ingliz tilida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy AI tizimlari murakkab inglizcha matnlarni o‘quvchining til darajasiga mos ravishda soddalashtirish, matndagi yangi so‘zlarga izoh berish, asosiy g‘oyani aniqlashga yordam berish hamda o‘qib tushunishni nazorat qiluvchi savollar ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Masalan, B2 darajadagi murakkab ilmiy-ommabop matnni A2 yoki B1 darajadagi o‘quvchilar uchun asosiy mazmunni saqlagan holda soddalashtirish mumkin.

Sun’iy intellekt yordamida matnga mos savollar yaratish o‘qituvchining metodik ishini ham yengillashtiradi. AI matnga faktik, tahliliy va tanqidiy fikrlashga qaratilgan savollar tuzishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchini faqat matndan tayyor javob qidirishga emas, balki mazmunni tahlil qilishga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga va muallif fikrini baholashga undaydi.

Ingliz tilida yozish ko‘nikmasini rivojlantirish sun’iy intellektdan foydalanishning eng faol yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Generativ AI o‘quvchiga mavzuni tushunish, yozma ishning rejasini tuzish, grammatik va leksik xatolarni aniqlash, jumlalarni uslubiy jihatdan takomillashtirish hamda matnning umumiy strukturasi bo‘yicha tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. Mahapatra tadqiqotida ChatGPTdan formativ feedback vositasi sifatida foydalanish o‘quvchilarning akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan yozish jarayonida foydalanish metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi lozim. O‘quvchi AIga mavzu bo‘yicha tayyor matn yozdirib, uni o‘zining mustaqil ishi sifatida topshirsa, ta’limiy maqsadga erishilmaydi. Shuning uchun o‘quvchi avvalo matnni mustaqil yozishi, so‘ng sun’iy intellekt yordamida undagi grammatik, leksik va strukturaviy xatolarni aniqlashi maqsadga muvofiq. AI tomonidan berilgan tavsiyalarni o‘quvchi mustaqil ravishda tahlil qilishi va yakuniy qarorni o‘zi qabul qilishi kerak.

Lug‘at boyligini rivojlantirishda sun’iy intellektning imkoniyatlari juda kengdir. An’anaviy usullarda yangi inglizcha so‘zlar ko‘pincha ularning tarjimasini yodlash orqali o‘zlashtiriladi. Sun’iy intellekt esa yangi so‘zning ma’nosi, sinonimi, antonimi, talaffuzi, kontekstda qo‘llanilishi, so‘z birikmalari va grammatik shakllari bo‘yicha kompleks ma’lumot berishi mumkin. Bu yangi lug‘at birliklarini kontekst asosida o‘zlashtirish imkonini beradi.

Masalan, o‘quvchi ma’lum bir so‘zni o‘rganayotganda sun’iy intellektdan ushbu so‘z bilan bog‘liq bir nechta jumlalar, kichik dialog, test yoki matn yaratishni so‘rashi mumkin. Shu orqali so‘z alohida birlik sifatida emas, balki real kommunikativ kontekstda o‘zlashtiriladi. Sun’iy intellekt o‘quvchining avvalgi xatolari asosida individual lug‘at ro‘yxatini ham shakllantirishi mumkin.

Grammatik kompetensiyani rivojlantirishda sun’iy intellektning muhim jihati xatoni shunchaki tuzatib qo‘yish emas, balki uning sababini tushuntirish imkoniyatidir. Masalan, o‘quvchi “He go to school every day” shaklidagi jumlani yozsa, sun’iy intellekt “go” fe’lining “goes” shaklida bo‘lishi kerakligini ko‘rsatish bilan birga, Present Simple zamonida uchinchi shaxs birlikda fe’lga “-s” yoki “-es” qo‘shimchasi qo‘shilishini izohlashi mumkin. Bu o‘quvchining grammatik qoidani ongli ravishda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning eng muhim pedagogik imkoniyatlaridan biri ta’limni individuallashtirishdir. Bir guruhdagi o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’ati turlicha bo‘ladi. Sun’iy intellekt o‘quvchining avvalgi

javoblari, yo'l qo'ygan xatolari va qiyinchilik tug'dirayotgan mavzularni tahlil qilgan holda unga mos topshiriqlar ishlab chiqishi mumkin. Bu juda oson yoki haddan tashqari murakkab topshiriqlardan kelib chiqadigan motivatsiya pasayishining oldini olishga yordam beradi.

Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya muhim omillardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt o'quvchiga natijani darhol ko'rish, o'z qiziqishiga mos materiallar bilan ishlash, topshiriq murakkabligini individual ravishda tanlash va o'z yutuqlarini muntazam kuzatish imkoniyatini beradi. Ali va hammualliflarning tadqiqotlarida ham ChatGPTdan foydalanish ingliz tilini o'rganish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. O'quvchi darsdan tashqari vaqtda o'qituvchining bevosita ishtirokisiz grammatik mavzularni takrorlash, yangi so'zlarni o'rganish, matn o'qish, ingliz tilida suhbatlashish va yozma mashqlar bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan AI vositalari o'quvchi uchun doimiy mavjud bo'lgan individual raqamli yordamchi vazifasini bajarishi mumkin.

Sun'iy intellektning afzalliklari bilan birga undan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Eng muhim muammolardan biri AI tomonidan yaratilgan ma'lumotlarning har doim ham mutlaq to'g'ri bo'lmasligidir. Generativ sun'iy intellekt grammatik va stilistik jihatdan ishonchli ko'rinadigan, biroq faktik jihatdan xato ma'lumotlarni ham yaratishi mumkin [9]. Shu sababli o'quvchilarga AI javoblarini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaslik, balki ishonchli ilmiy va o'quv manbalari orqali tekshirish ko'nikmasini shakllantirish zarur.

Akademik halollik masalasi ham dolzarb muammolardan biridir. Sun'iy intellekt yordamida esse, referat, tarjima, topshiriq va boshqa turdagi o'quv ishlarini qisqa vaqt ichida yaratish mumkin. Agar o'quvchi AI yaratgan materialni mustaqil bajarilgan ish sifatida taqdim etsa, uning real bilim va kompetensiyasini baholash imkoniyati kamayadi. Shuning uchun baholash jarayonida o'quvchi faqat yakuniy matnni emas, balki uni yaratish jarayonini ham namoyon qilishi, o'z ishini og'zaki himoya qilishi va AI vositalaridan qanday foydalanganini ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

Yana bir muhim xavf texnologik qaramlikdir. Agar o'quvchi har qanday oddiy grammatik yoki leksik vazifani ham sun'iy intellekt yordamida hal qilishga odatlansa, uning mustaqil fikrlashi va muammo yechish ko'nikmasi susayishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellekt ta'lim jarayonida o'quvchi o'rniga vazifani bajaruvchi vosita emas, balki o'quvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi vosita bo'lishi kerak.

Sun'iy intellektdan samarali foydalanishda o'qituvchining roli yanada muhimlashadi. Zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, AI yaratgan materiallarni baholovchi, o'quvchilarni to'g'ri yo'naltiruvchi, akademik halollikni nazorat qiluvchi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodik rahbar sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Sun'iy intellekt integratsiyalashgan ingliz tili ta'limida o'qituvchining professional kompetensiyasiga yangi talablar yuzaga keladi. O'qituvchi sun'iy intellekt imkoniyatlari va cheklovlarini bilishi, AI uchun pedagogik jihatdan to'g'ri topshiriqlar shakllantira olishi, sun'iy intellekt yaratgan ma'lumotlarni tekshirishi, o'quvchilar uchun xavfsiz va maqsadli raqamli ta'lim muhitini tashkil eta olishi kerak.

Olib borilgan tahlillar asosida ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan diagnostika, individuallashtirish, interaktiv mashq, tezkor qayta aloqa, o'quvchining mustaqil tahlili, refleksiya va pedagogik nazorat bosqichlaridan iborat bo'lishi kerakligi aniqlandi. Dastlab o'quvchining mavjud bilim darajasi aniqlanadi. Keyin uning ehtiyojlariga mos individual topshiriqlar ishlab chiqiladi. Shundan so'ng sun'iy intellekt yordamida interaktiv mashqlar bajariladi va o'quvchiga tezkor qayta aloqa beriladi. O'quvchi ushbu tavsiyalarni mustaqil tahlil qiladi, o'z xatolarini tuzatadi va yakunda o'qituvchi tomonidan pedagogik nazorat amalga oshiriladi.

Ushbu yondashuv sun'iy intellekt, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonining markazida sun'iy intellekt emas, balki o'quvchi shaxsi va uning rivojlanishi turishi kerak. Sun'iy intellekt esa mazkur jarayonni tezlashtiruvchi, individuallashtiruvchi va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini individuallashtirish, tezkor qayta aloqa tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va til ko'nikmalarini muntazam mashq qilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Sun'iy intellekt vositalaridan tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish, lug'at boyligi va grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa, AI-chatbotlar ingliz tilida muntazam muloqot muhitini yaratishi, generativ AI yozma ishlar bo'yicha tezkor tavsiyalar berishi, adaptiv platformalar esa o'quvchining bilim darajasiga mos individual topshiriqlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish akademik halollik, noto'g'ri axborot, texnologik qaramlik, tanqidiy fikrlashning susayishi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanish pedagogik nazorat ostida, aniq ta'limiy maqsad va metodik talablar asosida tashkil qilinishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida ingliz tili o'qituvchilarining sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish, pedagoglarni AI vositalari bilan metodik jihatdan to'g'ri ishlashga o'rgatish, o'quvchilarda sun'iy intellekt taqdim etgan axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda AI vositalaridan akademik halollik tamoyillariga muvofiq foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ingliz tili darslarida sun'iy intellektdan foydalanishda o'quvchi avvalo topshiriqni mustaqil bajarishi, keyin AI yordamida uni tekshirishi, berilgan tavsiyalarni tahlil qilishi va yakuniy tuzatishni mustaqil amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv sun'iy intellektdan foydalanish bilan bir qatorda o'quvchining mustaqil fikrlashi va mas'uliyatini ham saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mazmuni hamda metodikasini sezilarli darajada takomillashtirish imkoniyatiga ega. Biroq uning pedagogik samaradorligi texnologiyaning o'ziga emas, balki undan qanday maqsadda, qanday metodika asosida va qanday pedagogik nazorat ostida foydalanilishiga bog'liq. Shu sababli sun'iy intellektni ingliz tili o'qituvchisini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki o'qituvchi va o'quvchining samarali hamkorligini kuchaytiruvchi zamonaviy intellektual-pedagogik vosita sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ–358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris: UNESCO, 2023.
3. Xu, T., Wang, H. The effectiveness of artificial intelligence on English language learning achievement // System. - 2024. - Vol. 125. - 103428.
4. Mahapatra, S. Impact of ChatGPT on ESL students' academic writing skills: A mixed methods intervention study // Smart Learning Environments. - 2024. - Vol. 11.
5. Fathi, J., Rahimi, M., Derakhshan, A. Improving EFL learners' speaking skills and willingness to communicate via artificial intelligence-mediated interactions // System. - 2024. - Vol. 121. - 103254.
6. Du, J., Daniel, B. K. Transforming language education: A systematic review of AI-powered chatbots for English as a foreign language speaking practice // Computers and Education: Artificial Intelligence. - 2024. - Vol. 6. - 100230.
7. Lo, C. K., Yu, P. L. H., Xu, S., Ng, D. T. K., Jong, M. S. Y. Exploring the application of ChatGPT in ESL/EFL education and related research issues: A systematic review of empirical studies // Smart Learning Environments. - 2024. - Vol. 11.
8. Kohnke, L., Moorhouse, B. L., Zou, D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. - 2023. - Vol. 54, No. 2. - P. 537-550.
9. Barrot, J. S. Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and potentials // Assessing Writing. - 2023. - Vol. 57. - 100745.
10. Kasimova, M. Sun'iy intellekt orqali xorijiy til o'rganuvchilarining faolligini oshirish va ta'lim jarayoniga jalb qilish // O'zbekistonda xorijiy tillar. - 2024. - № 1(54).

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(3)**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.